

BEZGAK KASALLIGI EPIDEMIOLOGIYASI VA PROFILAKTIKASI**Nuriddinov Axmad Muxammadiyevich**

Samarqand davlat tibbiyot universiteti Epidemiologiya kafedrasi assistenti

Annotatsiya: bezgak kasalligi – infektsion kasalliklardan biri bo'lib, viruslar yoki bakteriyalar orqali paydo bo'ladi va asosan yuqumli kasalliklar toifasiga kiradi. Ushbu annotatsiyada bezgak kasalligining epidemiologiyasi, tarqalish yo'llari, belgilari va profilaktika choralari tahlil qilinadi. Epidemiologik jihatdan, bezgak kasalligi har yili millionlab insonlarni zararlaydi. Asosan tropik va subtropik mintaqalarda tarqalgan bo'lib, buning asosiy sababi - mos keluvchi muhit va xususan, qimorchilar kabi parazitlar uchun qulay sharoitlar hisoblanadi.

Kalit so'zlar: bezgak, epidemiologiyasi, yuqumli kasallik, parazit, simptomlar, vaksinatsiya, tarqalish yo'llari, gigiena, profilaktika, infeksiya.

Аннотация: Малярия – одно из инфекционных заболеваний, вызываемое вирусами или бактериями и преимущественно относящееся к разряду инфекционных болезней. В этом реферате анализируются эпидемиология, передача, симптомы и профилактические меры малярии. С эпидемиологической точки зрения малярия ежегодно поражает миллионы людей. Распространены главным образом в тропических и субтропических регионах, основная причина этого — благоприятная окружающая среда и особенно благоприятные условия для таких паразитов, как азартные игры.

Ключевые слова: малярия, эпидемиология, инфекционная болезнь, паразит, симптомы, вакцинация, пути распространения, гигиена, профилактика, заражение.

Abstract: Malaria is one of the infectious diseases, which is caused by viruses or bacteria and mainly belongs to the category of infectious diseases. This abstract analyzes the epidemiology, transmission, symptoms, and preventive measures of malaria. Epidemiologically, malaria affects millions of people every year. Mainly distributed in tropical and subtropical regions, the main reason for this is the favorable environment and especially favorable conditions for parasites such as gamblers.

Key words: malaria, epidemiology, infectious disease, parasite, symptoms, vaccination, ways of spreading, hygiene, prevention, infection.

Epidemioliya yuqumli kasalliklarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va aholi orasida tarqalish xususiyatlari hamda qonuniyatlarini o'rgatib, yuqumli kasalliklarga qarshi kurash chora-tadbirlarini ishlab chiqadi va uni amalga oshirilishini ta'minlaydi. Mustaqillik davrida O'zbekistonda yuqumli kasalliklarning epidemik ko'rinishlari keskin kamaydi. Kishilik jamiyatida epi-demik kasalliklarning paydo

bo‘lishi va tarqalishi epidemik jarayon deb ataladi. Holbuki, epidemiologiya epidemik jarayonning qonuniyatlarini, unga qarshi kurash va tugatish usullarini o‘rganadi. XX asrning oxiriga kelib, epidemiologiya fanida keskin burilish paydo bo‘ldi. Bu o‘z xususiyatiga ko‘ra, yuqumli bo‘limgan kasalliklar ham epidemik tus olib rivojlanishidir. Bu kasallikla ning yuzaga kelish sabablari, rivojlanish qonuniyatları epidemiologiyaning asosiy uslublari orqali o‘rganiladi. Epidemiologiya ikkiga bo‘lib o‘rganiladi: 1. Umumiy epidemiologiya. 2. Xususiy epidemiologiya.

Dunyo mamlakatlari miqyosida kasalliklarni oldini olish maqsadida parazitar kasalliklar bo‘yicha epidemik vaziyat barqarorligini ko‘rsatmoqda. Jumladan, aholi o‘rtasida bezgak kasaligining profilaktikasi va chetdan kirib kelishini oldini olish chora-tadbirlari bo‘yicha muntazam ravishda sanitariya-targ’ibot ishlari amalga oshirilib kelinmoqda. JSST ma’lumotiga ko‘ra, dunyoda har yili 200 mln.dan ortiq odam bezgak kasalligiga chalinib, 800 ming.dan ortiq kishi nobud bo‘ladi. Bezgak kasalligi (malarie) — dunyoda keng tarqalgan va salomatlik uchun jiddiy tahdid soluvchi yuqumli kasallikdir. Bu kasallik Anofeles chivinlarining tishlashi orqali Plasmodium parazitlari, xususan Plasmodium falciparum, Plasmodium vivax, Plasmodium malariae va Plasmodium ovale orqali yuqadi. Har yili millionlab odamlar bezgakdan aziyat chekadi, asosan tropik va subtropik iqlim sharoitida. Bezgak kasalligi dunyoning yuzdan ortiq davlatlari aholisi sog‘ligiga xavf tug‘dirmoqda. Kasallik asosan Afrika, O‘rta Osiyo, Lotin Amerikasi, Yaqin Sharq va Yevropaning ayrim hududlarida uchramoqda. Hozirgi vaqtida kasallik bartaraf etilgan MDH mamlakatlarida (Tojikiston, Qirg‘iziston, Gurjiston, Ozarbayjon, Rossiya va boshqa davlatlar) qaytadan kuzatilmoxda. Tropik mamlakatlarning barchasi kasallik bo‘yicha xastalanish darajasi yuqori hudud bo‘lib qolmoqda. 2007-yilning may oyida Jenevada bo‘lib o‘tgan Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining 60-assambleyasida har yili 25-aprel dunyo bo‘yicha Bezgakka qarshi kurash kuni, deb e’lon qilindi. BMT Bosh kotibi Pan Gi Mun: „Bezgakka qarshi shafqatsiz kurash olib borishning vaqtি keldi“, degan maqolada, bezgak – bu ayovsiz qotil, deb ta’kidlagan.

Bezgak (ital. malaria, mala aria – badbo‘y havo) – bezgak plazmodiyulari qo‘zg‘atadigan invazion kasallik; isitma tutishi, qonda jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘lishi, kamqonlik, jigar va taloqning kattalashuvi bilan kechadi. Bezgakning plazmodiysi to‘rt xil, shunga ko‘ra bezgakning uch kunlik, to‘rt kunlik, tropik va Afrika xillari bor. Bezgak plazmodiysi Bezgak chivini va odam organizmida ko‘payib rivojlanadi. Kasallik manbai bemor va Bezgak chivini (asosan urg‘ochisi) hisoblanadi. Bezgak plazmodiysi Bezgak bilan og‘rigan bemor organizmida jinssiz (shizogoniya), kasallikni tashib yuruvchi – anofeles chivini tanasida esa jinsiy yo‘l bilan rivojlanadi. Kasallik sog‘lom odamga chivin chaqqanda, odam organizmiga uning so‘lagi orqali qo‘zg‘atuvchilar tushganda yuqadi. Qon oqimi bilan ular jigarga tushadi, bu yerda

rivojlanishning birinchi (to‘qima) sikli ro‘y beradi, so‘ngra yana qonga tushadi va eritrotsitlar ichiga kirib oladi, bu yerda ikkinchi (eritrotsitar) rivojlanish sikli o‘tib, eritrotsitlarning parchalanishi va qonga ko‘p miqdorda qo‘zg‘atuvchilar chiqishi bilan tugallanadi, bu odamni isitma tutishi bilan o‘tadi. Bezugak o‘tkir yuqumli kasallik bo‘lib, Anofeles (bezugak chivinlari) chivini orqali yuqishi, qaltirash, tana harorati ko‘tarilishi, taloq va jigar kattalashishi hamda kamqonlik bilan xarakterlanadi. Bezugak ilmiy tilda malaria deb ataladi va bu malariae so‘zidan olingan bo‘lib, mal – badbo‘y, ariae – hid yoki havo degan ma’noni anglatadi. Uni juda kichik parazit-plazmodiyalar qo‘zg‘atadi. Ularni faqat mikroskop ostida ko‘rish mumkin. Virus inson qonida yashab, ko‘payadi va qizil qon tanachalarida joylashib, ularni parchalaydi hamda qon ishlab chiqarish, asab, yurak qon-tomir va organizmning boshqa tizimlarini ishdan chiqaradi. Ba’zan kasallik shunchalik og‘ir kechadiki, agar davolash o‘z vaqtida boshlanmasa, bemor bir necha kundan so‘ng asosan tropik bezugakda vafot etadi. Harorat ko‘tarilganda yoki bezugakning boshqa belgilari namoyon bo‘lganda, albatta tibbiy yordamga murojaat qilish kerak. To‘g‘ri tashhis qo‘yishda qon tahlili shart. Agar siz oxirgi 3 yil davomida Markaziy va Janubiy-Sharqiy Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari hamda Tojikiston va respublikamizning janubiy viloyatlariga chiqqan bo‘lsangiz, u yerda bezugak bilan zararlanish xavfi yuqoriligini hisobga olgan holda, har qanday darmonsizlik kuzatilsa, albatta barmoqdan qon topshirishingiz lozim.Qo‘zg‘atuvchi odam organizmida 10—14 kungacha (ba’zan, bir yilgacha va bundan ko‘proq) bo‘lib, kasallik belgilarini qo‘zg‘atmasligi mumkin (inkubatsion yoki yashirin davr). Kasallik to‘satdan boshlanadi: bemorni isitma tutib, junjiydi, qaltiraydi (u ba’zan shu qadar qatqiq qalti-raydiki, hetto ustiga issiq ko‘rpa yopilganda ham sovuq qotadi), keyin qaltirash bosilib, harorat ko‘tariladi ($41 - 41,5^{\circ}$), bemor bo‘riqib, qizaradi. Isitma bir necha soat tutadi. So‘ngra harorati tez pasayib, ba’zan bir maromga tushadi; shu payt bemor qattiq terlaydi, ertasiga o‘zini sog‘lom g‘is qiladi. Keyin yana isitma tutadi; uch kunlik Bezugakda – ikki kunda bir marta, to‘rt kunlik Bezugakda – har uch kunda bir marta, tropik Bezugakda – ko‘pincha kun sayin isitma tutib turadi. Isitma tutayotgan bemorning qoni tekshirilganda, Bezugak plazmodiyalarini topish mumkin. Bezugak tutavergach, plazmodiyalar qizil qon tanachalari (eritrotsitlar)ni parchalashi sababli bemor kamqon bo‘lib qoladi, talog‘i va jigari kattalashadi, oq qon tanachalari (leykotsitlar) ancha kamayadi. Bezugak davolanmay qolib, kasallik uzoq davom etganda tinkani quritib, mehnat qobiliyatini susaytiradi, bolalar o‘sish va rivojlanishdan orqada qoladi. Bemor o‘z vaqtida davolanmasa yoki chaladavolansa, Bezugakka boshqa kasalliklar qo‘shiladi. Bezugakning og‘ir shakli bilan og‘iganlarda, shuningdek bolalarda koma holati, ba’zan o‘lim yuz berishi mumkin. Bemor barvaqt to‘g‘ri davolangavda sog‘lig‘iga pugur yetmaydi, undan atrofdagi kishilarga Bezugak chivinlari orqali kasallik yuqish ehtimoli yo‘qoladi. Bezugak kasalligi sog‘lom insonga bemordan, yuqorida qayd etilgan Anofeles turiga mansub chivinlarning chaqishi orqali

o‘tadi. Chivin bezgakka chalingan insonni chaqqanida, uning oshqozoniga qon orqali parazitlar tushadi. Chivin organizmida parazitlar bir necha kun rivojlanadi va yuqumli parazit tashuvchisiga aylanadi. Sog‘lom odamni chaqqanda chivinning so‘lagi orqali infeksiya odam organizmiga tushadi hamda ma’lum bir vaqt ichida insonda kasallik belgilari paydo bo‘ladi. Bezugak chivinlarining hayot tarzi murakkab bo‘lib, suv va havoda o‘tadi. Suv va havo harorati qulay bo‘lsa, rivojlanishning butun jarayoni 10-20 kun davom etadi. Chivinning urg‘ochisi suvga tuxum qo‘ygandan keyin undan g‘umbaklar chiqib qo‘g‘irchoqqa aylanadi va ulardan qanotli chivinlar uchadi. Chivinlar ozuqa izlab bir martada 3 km.gacha bo‘lgan masofani bosib o‘tishi mumkin. Bezugak ko‘zg‘atuvchisi bilan zararlangan chivin ikki oy davomida kasallik yuqtirish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Bezugak chivinlari daryo sohillari, botqoqlashgan suv havzasi, sholipoyalar, axlat chiqindilari to‘lib ketgan, turg‘un suvli yoki oqimi sekin ariqlar, suv quvurlarining ishdan chiqishi natijasida, vaqtincha vujudga keladigan suv havzalarida ko‘payadi. Avval ta’kidlab o‘tilganidek, bezgak faqatgina bezgak chivinlari mavjud joylarda tarqaladi. Buning uchun eshik va derazalarni himoya to‘rlari (doka, temir yoki polietilen setka) bilan qoplash, hasharotlardan himoya qiluvchi to‘r (pashshaxona) o‘rnatish lozim. Bundan tashqari, maxsus elektrik moslamalar yoki fizik qurilmalar yordamida chivinlarni qo‘rquituvchi spiral va plastinalarni qo‘llash mumkin. Chivinlar soni va ular ko‘payayotgan erlarni kamaytirish uchun keraksiz suv havzalari va botqoqlarni yo‘qotish, suv havzalarida chivin qurtlari bilan oziqlanadigan gambuziya baliqchasini ko‘paytirish, xonalar va suv havzalariga insektitsidlar (zaharli ximikatlar) bilan ishlov berish lozim. Bu ishni DSENM hamda dezinfeksiya stansiyalari xodimlari amalga oshiradilar. Faqatgina o‘z vaqtida va to‘g‘ri davolash kasallikning oldini olishi mumkin. Issiq iqlimga ega bo‘lgan chet davlatlarga ketishdan avval, albatta, sanitariya-epidemiologiya nazorati markazi shifokori yoki oilaviy shifokoringiz bilan bezgakning oldini olish choralar to‘g‘risida maslahat olishingizni tavsiya etamiz. Bezugakning eng ko‘p uchraydigan dastlabki belgilari isitma, bosh og‘rig‘i va titroqdir.Semptomlar odatda infektsiyalangan chivin chaqishi natijasida 10-15 kun ichida paydo bo‘ladi.Ba’zi odamlar, ayniqsa, ilgari bezgak infektsiyasiga duchor bo‘lganlar, engil alomatlarga ega bo‘lishi mumkin. Bezugak uchun imkon qadar tezroq testdan o‘tish muhim, chunki uning ba’zi belgilari o‘ziga xos emas.Ba’zi bezgak turlari og‘ir kasallik va o‘limga olib kelishi mumkin. Go’daklar, besh yoshgacha bo‘lgan bolalar, homilador ayollar, sayohatchilar va OIV yoki OITS bilan yashaydigan odamlar og‘ir infektsiya xavfi yuqori. Kasallikning og‘ir belgilari quyidagilar kiradi:haddan tashqari charchoq va zaiflik,ongning buzilishi,bir nechta tutilishlar,nafas olish qiyinligi,siydikda qorong‘u siydik yoki qon sariqlik (ko‘z va teri oqlarining sarg‘ayishi)anormal qon ketish. Jiddiy alomatlari bo‘lgan bemorlar shoshilinch tibbiy yordam olishlari kerak.Kasallik alomatlari: Kasallikning kechishida 3ta davr kuzatiladi;

1. Et uvishish qaltirash davri. Bunda bemor sovuq qotadi, eti uvishadi, qattiq qaltiraydi. Qalin o‘ranib yotishga harakat qiladi. Bemorning boshi qattiq og‘riydi. Bu davr yarim soat davom etadi.

2. Isitma chiqish davri. Bemorning tana harorati 38-41oS gacha ko‘tariladi. Bolalarda tirishish (sudorogi) holati bo‘lishi mumkin. Bu davr o‘rtacha 3-6 soat davom etadi.

3. Terlash davri. Bemor qattiq terlaydi. Bu davrda bemorning isitmasi tushadi, ahvoli yengillashadi. Isitma yoki bezgak xuruji kasallikning turiga qarab, har bir, ikki va uch kunda takrorlanib turadi. O‘z vaqtida davo choralar ko‘rilmasa, kasallik 1-3 oygacha davom etishi mumkin. Kasallik davomida organizmda immunitet yani parazitga qarshi kurashuvchi moddalar hosil bo‘ladi. Bu immunitet barqaror emas, yani bezgakni qayta yuqtirishi mumkin. Homilador ayollarda bezgak juda og‘ir kechadi. Kasallik homilaning tushishiga, bolaning vaqtidan oldin, o‘lik, juda kichik vazn bilan yoki o‘ta nimjon bo‘lib tug‘ilishiga olib keladi. Bezgak kasalligi tarqalishini o‘rganish epidemiologiya sohasining asosiy vazifalaridan biridir. Kasallik Asosiy uchta Plasmodium turlari orqali yuzaga keladi: Plasmodium falciparum, Plasmodium vivax, Plasmodium malariae va Plasmodium ovale. Tarqalish yo’llari. Bezgak kasalligi chivinlarning tishlashi orqali tarqaladi. Chivinlar, asosan, nemis qishloqlari va tropik iqlim sharoitida ko‘p uchraydi. Yuqorida sanab o‘tilgan Plasmodium turidan qaysi biri dominant bo‘lishiga qarab, belgilangan mashhur mintaqalarda tarqalish darajasi farq qiladi. Bezgak kasalligidan himoyalanish uchun bir qator profilaktika choralar mavjud. Chivinlar bilan kurashish: chivinlarga qarshi insektitsidlar va chivin teshishidan saqlanish uchun himoya vositalaridan foydalanish. Tibbiy profilaktika: kasallik tarqalishidan oldin vaktsinalarni qabul qilish va antimarial dori-darmonlardan foydalanish. Oziq-ovqat va hayot tarzi: gigiena, toza va quruq muhitni saqlab qolish, ochiq joylarda ko‘proq vaqt o‘tkazmaslik. Ma’lumot berish: jamiyatda bezgak kasalligi to‘g‘risida axborot tarqatish, bu esa kasallikdan saqlanish yo’llarini anglashga yordam beradi.

Bezgak kasalligi epidemiologiyasi va profilaktikasi kompleks jarayonni tashkil etadi. Sog‘lijni saqlash tizimlari, hukumatlar va jamoatchilik birgalikda kuchli choralar ko‘rib, bezgak tarqalishini kamaytirishi va aholining salomatligini yaxshilashi mumkin. Ushbu kasallikni oldini olish va nazorat qilishning muvaffaqiyati faqatgina maxsus chora-tadbirlarni amalga oshirishda emas, balki global hamjihatlikda ham ko‘rinadi.

Foydalanilgan adabiyot va havolalar

1. V.M. Jdanov. Borba s infektsionnymi zabolevaniyami. M., «Tibbiyot», 1955 yil.
2. Kas-Chernoxvostova. Epidemiologiya. T., O‘zbekiston Sog‘lijni saqlash vazirligining davlat tibbiyot nashriyoti, 1961

3. M. Dadalova. Sbornik instruktsiy po profilaktika infektsiyanix zabollevaniy. T., "Frunzevets", 1961 yil.
4. I.I. Ragozina. Voennaya epidemiya. L., 1962 yil.
5. E.M. Pugach. Profilaktika beshenstva i proizvodstvo antirabicheskoy immuny. M., «Tibbiyat», 1963 yil.
6. A.A. Studnitsin. Tarixiy ocherk mikrobiologii, epidemiya va kliniki infektsion bolezney, mikozy va bolezni s nevyyasnitelnoy etiologiya. M., «Tibbiyat», 1966.
7. V.M. Jdanov. Virusnye bolezni va rikketsiozy. M., "Tibbiyat", 1966 yil.
8. V.V. Skvortsov, V.S. Kiktenko, V.D. Kucherenko. Vyjivaemost va indikatsiya patogen mikroblar va vneshney srede. M., «Tibbiyat», 1966.
9. <https://uchquduq.uz/matbuot-xizmati/yangiliklar/item/1831-bezgak-kasalligidan-ogon-bo-ling>
- 10.<https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Bezgak>
- 11.<https://sanepidnavoiy.uz/ochiq-malumotlar/maqolalar/174-bezgak-qanday-kasallik.html>
- 12.<https://kutubxona.samduuf.uz/download/1390>